

**FARG'ONA VODIYSI JADIDCHI MA'RIFATPARVARLARINING
MILLIY – MA'NAVIY, PEDAGOGIK - IJTIMOIIY OMILLARI**

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Abdurazaqova Feruza

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabalari

Raxmonova Nigora Ruzibekovna

Axatova Odina Muhammadnazir qizi

ANOTATSIYA

Maqolada, Farg'ona vodiysi jadidchi ma'rifatparvarlarning, xalqimiz, milliy-ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik –ijtimoiy omillarini birma-bir ochib bergan. Yangi-usul maktablarining Turkiston o'lkasida, Farg'ona vodiysi dagi Andijon, Namangan, Fargona uyezdida ochilishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Fargona vodiysi, jadid, ma'rifat, ijtimoiy – omil, Turkiston muxtoriyati, usul, Qiroat kitobi.

Yaqin o'tmishda xukmron bo'lgan mafkura ma'naviyatni, uni o'rganishni, tadqiq etishni nokerak, noo'rin va umuman zararli ish deb qaragan. Chunki, har bir millatning o'z ma'naviyatini aniqlashi, bilishi va o'z aql farosatining, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatni mustahkamlaydi, uning o'ziga bo'lgan e'tiqod va qadr qimmatini boyitadi.

Ma'naviyat sohasida mustaqil O'zbekiston oldida murakkab vazifalar turibdi. Ulardan asosiysi ma'naviyatimizni boyitish va mustahkamlashdir. Shu bois mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarida quyidagilarni takidlaydi,... “biz o'z tariximizni holisona va xaqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z xissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu-fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimizdandir.” O'z vaqtida o'ziga hos milliy ma'naviyatimizni shakllantirish va yuksaltirishning quyidagi omillarini aniq ko'rsatib berdilar:

Birinchi omil- “Oila”. Pedagogik va psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda haqiqatan ham insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibati, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham oila muhitida boʻladigan ota – onaga hurmat, ularning oldidagi ulugʻvor qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos boʻlgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning maʼnaviy olamini tashkil etadi.

Koʻp yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, inson oʻz umri davomida oladigan barcha axboratni 70 foizini 5 yoshgacha boʻlgan davrda olar ekan bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan boʻlsak, aynan ana shu davridayoq qalbida oiladagi muhit taʼsirida maʼnaviyatning ilk kurtaklari namoyon boʻla boshlaydi. Xalqimizning “Qush uyasida koʻrganini qiladi”, degan dono maqolida azaliy haqiqat oʻz ifodasini topgan. Fargʻona vodiysi jadidlar harakatining yirik namoyondalaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy oʻzining **“Qiroat”** kitobiga kiritilgan bir rivoyatda, yaʼni **“Bolaning yomon boʻlmogʻiga sabab boʻlgan onaning jazosi”** sheʼrida bunday deb yozadi hamda, boshida yaxshi tarbiya qilgan boʻlsalar tilimizni yolgʻondan, qulogʻimizni isnotdan, turli rejalaridan mumkin qadar ehtiyot qilib, oʻzimizni yoshlik, yolgizlikdan qiladigan erinchoqlarimizga iltifot qilmay, urushib, soʻkib, maktab topshirib ilm otliq saodatga...jahonga yetadigan bir rahnomoiy, haqiqatga tanish va oshno qilgan boʻlur edilar. Biz butun shum yomon boʻmas va oʻzlari bu qadar...minglarcha pushaymon boʻlmasdilar” deydi.¹

Shunday qilib, odamzod uchun bir umr zarur boʻladigan tabiiy koʻnikma va xususiyatlar, masalan, har bir bolaning oʻziga xos va oʻziga mos qobiliyati, atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida oʻzini qanday his qilishi, yetakchilik hislatlariga ega boʻlishi yoki ega boʻlmasligi, kerak boʻlsa, dunyoqarashi- bularning barchasi avvalo uning tugʻma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasi bilan uzviy bogʻliq ekanini hayot tajribasi koʻp misollarda tasdiqlab beradi.

Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi yomon- narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning begʻubor ongi bamisoli bosma qogʻoz singari oiladagi, yon atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni oʻziga shimib singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo va momolariga mexri va hurmati, oʻzini oʻrab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi.

Qisqacha aytganda, xonadondagi har bir narsa- daraxt va oʻsimlik boʻladimi, turli oʻyinchoqlar boʻladimi, uy hayvonlari boʻladimi- bularning barchasi bolaning koʻziga goʻyoki olamning beqiyos moʻjizasi sifatida koʻrinadi va shu tariqa yorugʻ dunyoni oʻzi uchun kashf qiladi.

Taassufki, - deb yozadi birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarda, baʼzi ota –onalar oʻz farzandlarining ana shunday qiziqishi va intilishlariga, uning ongi tafakkurida har

1. “Bolaning yomon boʻlmogʻiga sabab boʻlgan onaning jazosi. Asarlar, ikki tomlik, I tom Gʻ.Gʻulom nomli Badiiy adabiyot nashriyoti, 1969, 111-112- betlar.

2. Oʻzbek pedagogika tarixi. Professor Asqar Zunnunovning umumiy tahriri ostida.T.,Oʻqituvchi. 1997-yil.

kuni bir o'zgarish ro'y berib, ko'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga ahamiyat bermaydi. Ota oilada o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga qo'pol muomala qiladigan bo'lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, vaqti soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq hunuk bir holat odam sifatida namoyon bo'ladi.

Yoki, oilada qo'ni-qo'shnilarini ko'rolmaslik, fisqu-fasod, ig'vo-tuhmati hukmron bo'lsa, hech shubhasiz, bularning barchasi bolaning xotirasida tuzatib bo'lmaydigan og'ir asorat qoldiradi. Umuman, oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mexribon va raxmdil, yoki hudbin va bag'ritosh bo'lib voyaga yetishini tushunish qiyin emas.

Biz o'z farzandlarimizning baxtu- saodatini, iqbolu- kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-ko'ydagi odamlarning hatti – harakati va bolaning shakllanib borayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu borada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz kerak.

Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qanday honadondagi ma'naviy iqlimni, o'zaro hurmat, ahloq-odob, insoniy munosabatlar asosida qurish ayni muddao bo'lur edi. Bu haqda gapirganda, mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” asaridagi qahramonlarning o'zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarining ham”siz” lab gapirishi misolida otabobolarimizning oila, oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga ishonch hosil qilamiz.

Mamlakatimiz prezidenti M.SH.Mirziyoyev 2017-yil 3-4-mayda Namangan viloyati To'raqo'rgon tumaniga tashrifida, Isoqxon Ibrat hayoti va ijodi, ulkan madaniy merosini yoshlarga singdirish va o'rgatish bo'lib, aholining turli qatlamlari bilan uchrashuvlar chog'ida ushbu masalaga alohida urg'u berdilar va oilaviy tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlardan mamnunliklarini bildirdilar. To'raqo'rgonda IBRAT MAKTABINI, IBRAT BOGINI ta'htanali ochib berdi.

Ikkinchi omil – mahallaning ro'li va ta'siri. Ma'lumki, o'zbek mahallalari chinakkam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan habar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomoshalar, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odatlar va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Ona yurt ramzi bo'lgan mahalla haqida fikr yuritar ekanmiz, “Mahalla-ham ota, ham ona”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan hikmatli naqlar bejiz aytilmaganining guvohi bo'lamiz.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir uchinchi omil – bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Bu umummilliy masaladir. Farzandlarimizni bugungi kun uchungina emas, balki ertangi kun-buyuk kelajak uchun ham tarbiyalashimiz, ta'lim bilan uzviy aloqada bu jarayonni tizimli olib borishimiz zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqib, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish-ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi hamda har qaysi ota-ona, ustoz-murabbiyning muqaddas burchidir. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqda fikr yuritganda, men **Abdulla Avloniyning “tarbiya yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”** degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman,- deb yozadi I.Karimov- buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi².

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch . T., "MA'NAVIYAT" 2010Y.
2. I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. O'zbekiston tarixi.-1999, 1jb, 3-14. 3. Pedagogika tarixi.-T, o'qituvchi nashri.
3. “Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi. Asarlar, ikki tomlik, I tom G'.G'ulom nomli Badiiy adabiyot nashriyoti, 1969, 111-112- betlar.
4. O'zbek pedagogika tarixi. Professor Asqar Zunnunovning umumiy tahriri ostida. T., O'qituvchi. 1997-yil
5. F.K. Abdurazaqova, Farg'ona vodiysi jadidchi marifatparvarlarining ma'daniy-ma'naviy merosi. Qo'llanma.. Hayot nashr, Andijon 2024.
6. Tojiboyeva, G., & Shobdurahimova, U. (2022). O 'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI, UNI BAHOLASH MEKANIZMI VA PSIXOLOGIYASI. *Архив научных исследований*, 2(1).
7. Таджибаева, Г. Р. (2021). ПРИЧИНЫ И ПУТИ РАЗРЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 4(3).

² I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" T.